



BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Ko`charov Aloviddin

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

E-mail:kocharovaloviddin03gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang`ich sinf matematika darslarida o`quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o`rgatiladigan topshiriqlarining ahamiyati va zaruriyati keltirib o`tilgan. O`quvchilarning mantiqiy fikrlashi bilan birgalikda muammolarda tanqidiy yondashishni o`rganish usullari berilgan.

Kalit so`zlar : Mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash, matematika, metod, masala.

Abstract: In this article, the importance and necessity of tasks that teach students to think logically and critically in primary grade mathematics lessons are mentioned. Methods of learning critical approach to problems together with students' logical thinking are given

Key words: Logical, critical, independent thinking, mathematics, method, problem

KIRISH

Hech qaysi fan matematika fani singari o`quvchilarni o`ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o`quvchilar to`g`ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o`rganadilar.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo`lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta`riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o`z-o`zini boshqaradigan, o`zini o`zi tarbiyalaydigan, o`zini o`zi nazorat qiladigan va o`zini o`zi to`g`iraydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat`iy me`yorlariga rozi bo`lish va ularni hushyorlik bilan qo`llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko`nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o`tishni talab qiladi.

Matematika darslarida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni oshirish uchun foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyatini va ulardan foydalanish usullarini ko`rib chiqamiz. “Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o`quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta`minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag`batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan turli g`oyalarni to`plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki

bosqichida paydo bo`lgan fikrlarni yengishga o`rganish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo`llaniladigan metod hisoblanib, u mashg`ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o`z tasavvurlari va g`oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma`lum ko`nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag`batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg`ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug`iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma`lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo`lgan g`oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Quyidagi mantiqiy topshiriqlar 1-4-sinf o`quvchilari bilan matematika darslarida bajarish tavsiya etiladi.

1.Xo`roz tarozida ikki oyog`ida turgan holda o`lchanganda 3 kg chiqadi.Xo`roz bir oyoqda turgan holda o`lchanganda necha kg chiqadi? (Javob:3kg)

2.Daraxt shoxida 9 ta chumchuq qator turibdi.to`rtinchi chumchuq uchib ketdi.Daraxt shoxida nechta chumchuq qoldi? (Javob: 8ta)

3.500 metr masofaga yugurish musobaqasida 5 ta sportchi qatnashdi.Har bir sportchi qancha masofa yugurgan?(javob:500 m)

4.Stolda 70 dona qog`oz turibdi.Har 10 soniyada 10 ta qog`ozni sanash mumkin.Bu xolda 50 ta qog`oz sanab olish uchun necha soniya vaqt kerak?(Javob:20 soniya)



XULOSA. Mazkur maqolada keltirib o`tilgan ma`lumotlar va metodlar orqali boshlang`ich sinf yoshidagi bolalarda mantiqiy va tanqidiy fikrlarni rivojlantirish

mumkin. Shuningdek aynan na`muna qilib ko`rsatilgan uslub va mashqlar o`quvchilardagi matematik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://oyina.uz>
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. <https://www.oriens.uz>

